

“ONA TILI TA’LIMIDA 4K YONDASHUVI”

Sunnatillayeva Mohinur Ravshan qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek til va

adabiyoti universiteti 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozida zamonaviy ona tili ta’limdagи xorij tajribalari asosida Xalq ta’limi tizimiga kiritilgan 4K yondashuvi haqida nazariy ma’lumotlar, shu jumladan yondashuv o‘z ichiga nimalar olishi aks ettirilgan. Shu bilan birgalikda Prezident farmoni ham keltirib o‘tilgan. 4K yondashuvi asosidagi topshiriqlar.

Kalit so‘zlar: 4K yondashuv, kolloboratsiya, kritik fikrlash, kreativ fikrlash, kommunikatsiya

KIRISH Hozirgi kunda zamonaviy ta’limda 4K yondashuv degan yangi atama kirib kelgan. Ushbu yondashuvlар o‘quvchilarda og‘zaki, yozma va o‘qib va tinglab tushunish kabi bir qator ko‘nikmalar bilan bir qatorda boshqa ko‘nikmalarni ham rivojlantiradi. Ushbu yondashuvlар ta’lim jarayonida kata yutuqlar olib keldi. Darsliklar ham shu yondashuvlар asosida yaratilinib, o‘quvchilarda yangi ko‘nikmalarni rivojlantirishda ham imkon yaratdi. Darsliklar xorij tajribalari hamda xuddi shu 4K yondashuv asosida ham yaratilmoqda. “4K yondashuvi haqida Xalq ta’limi vazirining 2022-yil 5-dekabrdagi 372-sonli “Xalq ta’limi tizimida uzlusiz metodik xizmat ko‘rsatish ishlarini yana takomillashtirish to‘g‘risidagi buyrug‘i“ da ham ta’kidlab o‘tilgan.¹ Bu yondashuv UNESCO, OECD, PISA va boshqa xalqaro ta’lim standartlari tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni ham innovatsion va shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim tamoyillarini ilgari surmoqda. Yangi darsliklarning ishlab chiqarilishining asosiy tamoyillaridan biri bularning 4K yondashuvi asosida ishlab chiqilganidir.

¹ Lex.uz ijtimoiy sayti

ASOSIY QISM Keling endi biz yuqorida so‘z boshlagan 4K yondashuvlarining har biriga to‘xtalib o‘tsak.

Kolloboratsiya – ushbu yondashuvda asosan o‘quvchilarda guruhli faoliyatni tashkil etish ko‘nikmasini tashkil etishga xizmat qiladi. Bunga misol hozirgi yangi avlod darsliklarida o‘quvchilarga jamoaviy faoliyatga oid berilayotgan “Loyiha ishi” topshiriqlari misol bo‘la oladi.

O‘zaro samarali muloqot qilish va umumiy maqadga erishish uchun jamoada ishslash qobiliyatini hosil qiladi. Bu sifat bir-biriga bog‘liq bo‘lgan bir necha qobiliyatlarda namoyon bo‘ladi:

- umumiy g‘oyani yagoa maqsad sifatida qabul qilish qobiliyati
- ijtimoiy munosabatlarni shakllantirish
- zimmasiga olgan majburiyatlarni bajarish va hokazolardan iborat².

Kritik (tanqidiy) fikrlash – kritik fikrlash ya’ni tanqidiy fikrlash ko‘nikmasi hisoblanib, bunda o‘quvchilar o‘zgalar fikrini o‘g‘irlash emas balki har bir narsaga, asarga va hokazolarga o‘zining shaxsiy fikrini bildira olish. Salbiy narsalar va ijobjiy holatlarga o‘z fikrini u xoh tanqidiy bo‘lsin xoh ijobjiy o‘z fikrini asoslab dalillab berish va fikrida tura olish hisoblanadi. Jamoa bo‘lib hamkorlikda ishlanganda tanqidiy fikrlash orqali o‘quvchilar ijtimoiy muloqotga kirisha oladilar. U quyidagi xususiyatlarni o‘z ichiga oladi:

- tahlil - muhokama qilinadigan savol va dalillar o’rtasida mantiqiy bog’liqlikni o’rnatish;
- baholash - dalillarning ishonchliligi va aniqligini baholash qobiliyati; tushuntirish - o‘z nuqtai nazarini asoslash;
- faraz qilish - ma’lumotlarning yetishmasligini aniqlash va shu asosda mustaqil xulosa chiqarish qobiliyati;

² G‘aniyeva.M/Ta’limda yangi texnologiya” 4K modeli va uni amalga oshirish yo‘llari// xalqaro ilmiy-amaliy koferensiya

tartibga solish - o'z-o'zini tekshirish, xulosalarni chiqarish va mulohaza yuritish qobiliyati shakllanadi.

Kreativ fikrlash – bu o‘quvchida noodatiy va ijodiy fikrlashni ta’minlaydi. Hech qanday sun’iy intellektlarsiz o‘zi mustaqil ravishda nimadirni kreativlik ijodiy fikrlash orqali yarata olish ko‘nikmasini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ushbu yondashuvda quyidagilar shakllanadi:

qiziquvchanlik – atrof-olamga qiziqish, mustaqil ravishda ko'proq ma'lumot to'plash istagi paydo bo'ladi va savollarga javob topish;

tasavvur – o'ziga xos ko'plab yangi g'oyalarni ishlab chiqish qobiliyati;

g‘oyalarni rivojlantirish – turli pozitsiyalarda g'oyalarni baholash, ularning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, turli sharoitlarga yangicha yondashuv orqali munosabat bildirish qobiliyati shakllanadi.

Kommunikatsiya – koomunikatsiya o‘z nomi bilan muloqot qilish hisoblanadi. Bunda o‘quvchilar o‘z fikr-mulohazalarini ravshan aniq va mustaqil tarzda tinglovchiga yetkazish demakdir. Muloqot jarayonida o‘z suhbatdoshini tinglash u bilan fikr yuritish jarayonidir. Ushbu komponentsiya orqali o‘quvchi qo‘rqmay har qanday muloqotga kirisha oladi. Munozaralarni boshlash, muloqotning maqsadi va kontekstiga, savol va javob berishga kirishadi. O‘z nuqtai nazarini himoya qilish ko‘nikmasi hosil bo'ladi.

Yuqorida 4K yondashuvi asosida o‘quvchilarga qanday topshiriqlar berilishi mumkinligini ham ko‘rib chiqamiz:

1. Kreativlik – fikrlash doirasini kengaytirish

Ona tili darslarida o‘quvchilarning yaratuvchanligini oshirish uchun quyidagi usullar ishlataladi:

Erkin insho va esse yozish mashqlari

Metafora, personifikatsiya, so‘z o‘yinlarini qo‘llab matn yaratish

Hikoya davom ettirish, muqobil yakun yozish topshiriqlari

Misol: “Bahor haqida she’r yozing, lekin unda “bahor” so‘zi bo‘lmisin – bu topshiriq orqali fikrni obrazli ifodalashga o‘rgatiladi.

2. Kommunikatsiya – muloqot kompetensiyasini shakllantirish

O‘quvchilarning fikrni aniq va ravon ifoda qilish, faol tinglash, savol-javoblarda qatnashish ko‘nikmasi shakllantiriladi.

Rol o‘ynash (dialoglar tuzish)

Bahs-munozaralar, debatlar tashkil etish

Audiovizual vositalardan foydalanib og‘zaki nutqni mashq qilish³

3. Kolloboratsiya – hamkorlikda ishlash malakasi

Ona tili darslarida guruhlarda ishlash o‘quvchilarni jamoada fikr yuritishga, qaror qabul qilishga, murosa topishga o‘rgatadi.

Guruqli tahlil (matnni tahlil qilish)

Jamoaviy topshiriqlar (kollektiv diktant, poster tayyorlash)

Peer-review – o‘quvchilarning bir-biriga baho berishi

4. Tanqidiy fikrlash – chuqur tahliliy qarash

Tanqidiy fikrlash orqali o‘quvchilar fakt va fikrni farqlash, dalillarni tahlil qilish, muqobil fikr bildirish ko‘nikmalarini egallaydi.

Matndagi muallif pozitsiyasini aniqlash

“Nega?”, “Agar shunday bo‘lmasa-chi?” kabi savollar asosida bahs

Taqdimot va loyiha ishlari⁴

³ Vygotskiy.L.S/Tafakkur va nutq// Moskva;1934

⁴ Bloom.B.S/Taxonomy of Education objectives// 1956

XULOSA Ona tili ta'limida 4K yondashuvining tatbiqi — bu shunchaki yangi metod emas, balki ta'limning mazmun va shakl jihatdan zamонавија lashtirilgan modeli hisoblanadi. Bugungi raqamli, global va axborotga boy davrda o'quvchilarning faqatgina grammatik qoidalarga asoslangan bilimlari yetarli emas. Ular hayotiy vaziyatlarda mustaqil fikr yurita olishlari, jamoa bilan ishlash, samarali muloqot qilish va muammolarga kreativ yondasha olishlari zarur. Aynan shu ehtiyoj 4K yondashuvini joriy qilishni taqozo etadi.

1. Kreativlik – o'quvchilarning o'ziga xos fikrlash, tasavvur qilish va yangi g'oyalar yaratish qobiliyatini rivojlantiradi. Bunday o'quvchilar she'r, hikoya, maqola yoki erkin nutq orqali o'z fikrlarini original tarzda ifodalay oladilar.

2. Kommunikatsiya – nutq madaniyati, ifoda aniqligi va muloqot madaniyatini shakllantiradi. O'quvchilar o'z fikrini tushunarli ifoda qilishni, boshqa odamlarni tinglashni va konstruktiv muloqotga kirishishni o'rganadilar.

3. Kooperatsiya – o'quvchilarni ijtimoiy mas'uliyat, hamkorlik, jamoaviy qarorlar qabul qilishga tayyorlaydi. Dars jarayonida guruhli ishlar orqali ular o'zaro fikr almashadilar, murosa qilishni va mas'uliyatni bo'lishishni o'rganadilar.

4. Tanqidiy fikrlash – har qanday axborotni tahlil qilish, asosli fikr bildirish, dalil keltirish ko'nikmasini shakllantiradi. Bunday o'quvchi muallif fikriga tanqidiy qaray oladi, muqobil qarashlarni ilgari suradi, hayotda mustaqil qaror qabul qiluvchi shaxs sifatida shakllanadi.

Shunday qilib, 4K yondashuvi ona tili darslarining metodik bazasini yangilabgina qolmay, balki o'quvchining shaxs sifatida har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi. Bunday yondashuvli darslar o'quvchini faqat testga tayyorlamaydi, balki haqiqiy hayotga tayyorlaydi. Bu esa ta'limning eng muhim maqsadidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Aripov. X./Ona tili ta'limida innovatsion yondashuvlar//Toshkent: O'qituvchi, 2021.

2. Bloom B. S/Taxonomy of Educational Objectives: The Classification of Educational Goals// New York: David McKay Company, 1956.

3. G'aniyeva M/Ta'limda yangi texnologiya// Toshkent: Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

4. OECD/The Future of Education and Skills: Education 2030//OECD Publishing, 2018. <https://www.oecd.org/education/2030-project/>

5. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. –
<https://lex.uz/docs/5013007>

6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat umumta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori, 2021-yil.

7. Safarov. Sh/ Ta'limda zamonaviy metodlar va texnologiyalar//Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.

8. UNESCO. Education 2030: Incheon Declaration and Framework for Action. – Paris: UNESCO Publishing, 2015.

9. Vygotskiy L.S/Tafakkur va nutq/Moskva: 1982.